

2. Iqtibos manbai: Bogardus E. Leadership.-New York, 1934-P.138
3. Buribaevich, M. K., Mokhinur, B., & Mehribonu, A. (2022). Psychological Aspects Of Leader Traits In Boys And Girls In Different Family Settings. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 5, 129-134.
4. Buribaevich, M. K., Mehribonu, A., & Mokhinur, B. (2022). The Influence of Parents on The Leadership of Children in The Family-As A Psychological Factor in Parenting. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 5, 122-128.
5. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. -T.: “Akademiya”, 2006.241-b
6. Umida, K., & Qizi, R. A. Z. (2023). TALABA-YOSHLARNI IJTIMOY OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.
7. Karakulova, U. A., Nortoyeva, S. Q. Q., & Yangiboyeva, D. U. B. Q. (2023). OILAVIY MUHITI VA DEVIANT XULQ ATVOR SHAKLLANISHI. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 796-800.

O‘QUVCHILARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METOD VA USULLARI

Karshiyev Abror Amrullayevich

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

abrorkarshiev@jbnuu.uz

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik jihatlari o‘rganilib, ishchi ta’rif qabul qilingan. Axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonini mustaqil hayotiy faoliyat davomida axborotlar bilan ishlash kabi yondashuv asosida tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: kompetentsiya, kompetentlik, axborot kompetentlik, axborot – kommunikatsiya texnologiyalari, maktab.

Bugungi kunda intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan, mustaqil ravishda zaruriy axborotlarni izlab topadigan va ulardan tahlil asosida zaruriylapini ajpatib oladigan, bapcha bilan muloqotga kipisha oladigan, ta’lim muassasasidan olgan bilimlapini shaxsiy va ta’limiy ehtiyojlapida qo‘llay oladigan yoshlapni tapbiyalash masalalapiga katta e’tibop qapatilgan. Buning uchun esa o‘quvchilapni boshlang‘ich sinflardan boshlab unga tayyoplab bopish kepak. Ya’ni, umumta’lim fanlari bo‘yicha chuqur bilim berish, xorijiy tillarni puxta o‘rgatish va axborot-kommunikasiya texnologiyalari bo‘yicha kerakli malakalarni shakllantirib borish lozim. Ma’lumki, biz hozirgi kunda axborotlar olamida yashayapmiz. O‘qishda ham, ishda ham, kundalik faoliyatda ham kompyuter texnikasi vositalariga duch kelamiz va bularsiz bugungi kunimizni tasavvur ham qila olmaymiz. Shunday ekan maktab o‘quvchilarga informatika va axborot texnologiyalari fanidan chuqur bilim berish, kompyuter va uning boshqa texnik vositalaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishga o‘rgatish kerak. O‘quvchilar esa zaruriy

axborotga ega bo'lish, ularni izlab topish, undan keraklisini ajratib olish va foydalanishni o'rganishi kerak. Shu bilan birgalikda o'rganilgan bilim, ko'nikma va malakalardan ular kundalik hayotlarida uchraydigan muammolarni hal etishda foydalana olishlari uchun kompetensiyalar shakllantirilishi zarur. Shunga ko'ra, bu vazifalarni ta'lim muassasida o'quvchilarni o'quv predmetlarini o'rganish jarayonida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega qilish bilan birgalikda ularni hayotiy ehtiyojlarida qo'llay oladigan holda tayyorlash kerak. Buning uchun esa o'qitish jarayoni kompetentlik yondashuvga asoslangan holda tashkil etish kerak. Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, ta'limiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda maktab tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha tashkil etiladigan darslarda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muammosini quyidagi o'qitish texnologiyalaridan foydalanib muvaffaqiyatli hal etish mumkin: muammoli o'qitish texnologiyasi; o'qitishning loyiha texnologiyasi; vaziyatli masalalarni echish usullari.

Loyihalar usuli–bu o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchilar o'zlarining intellektual va jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirish orqali irodaviy va ijodiy qobiliyatlarini o'qituvchining bevosita nazorati ostida namoyish etadigan egiluvchan modeldir.

O'quvchilar loyihani nafaqat dars vaqtida, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham bajarishadi. Loyihalarni bajarish jarayoni natijalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. O'quvchilarda mashg'ulotlar jarayonida quyidagilarni (axborotni tahlil qilish, tizimlashtirish, tasniflash, tushunarli va dizaynli tarzda taqdim etish, o'z fikrlarini erkin bayon eta olish, g'oyalarini shakllantirish, jamoada va guruhda ishlash, mustaqil ta'lim olish, mustaqil qaror qabul qilish) shakllantirish va rivojlantirish.

2. O'quvchilarning maktabda o'qitiladigan umuta'lim fanlari bo'yicha o'zlashtirgan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish hamda mustahkamlash.

3. Turli xil zamonaviy texnik vositalar (chop etish qurilmalari, skanerlash qurilmasi, mikrofon va boshqalar) bilan ishlash ko'zda tutilgan o'quvchilarning axborot madaniyati darajasini oshirish.

4. O'quv loyihalarini bajarishga mo'ljallangan pedagogik dasturiy vositalarni o'rganish shart-sharoitlar yaratish.

Bizning nuqtai nazarimizcha informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha darslarda o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini to'raligicha echishda o'qitishning loyiha texnologiyasi katta imkoniyatga ega bo'lib, bu imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

- 1) mehnat mahsulotlarni yaratish bilan yakunlanadigan, aniq muammoni echishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish;

2) turli manbaalardan o'zi uchun etarli bo'lmagan bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirib olish;

3) bilish va amaliy xarakterdagi masalalarni echish uchun o'zlashtirilgan bilimlardan foydalanish;

4) tadqiqotchilik ko'nikmalarni rivojlantirish;

5) kompyuterdan ijodkorlik uchun vosita sifatida foydalanish.

Loyihani bajarishda uning ishtirokchilari doimiy ravishda quyidagi yo'nalishlarda o'zaro ta'sirlashuvda bo'ladi:

- "o'qituvchi-o'quvchi" - muammoni echish rejasini tuzishda, muammoni echishning optimal yo'lini tanlashda, o'z mehnatining natijalarini himoyalashda ;

- "o'qituvchi-kompyuter-o'quvchi" - o'z bilish va amaliy faoliyati natijalarini rasmiylashtirishda ;

"kompyuter-o'qituvchi-o'quvchi" - o'zi uchun etarli bo'lmagan bilimlarni olish lokal va global tarmoqlarning imkoniyatlaridan foydalanib loyiha boshqa ishtirokchilari bilan o'zaro ta'sirlashuv.

Klasterni shakllantirishda integratsiyalashayotgan guruhlar birlashtirish guruhlar maqsadlarining kesishuvidan kelib chiqadi.

Ta'lim jarayonini klaster usulida tashkil etishda klasterning asosiy xususiyatlari: butun tizimni bosh strategiyasini belgilab beruvchi boshqaruvchi (o'qituvchi, moderator, kordinator va boshqalar) ning mavjudligi; umumlashtiruvchi xususiyatlarning mavjudligi; aloqalarning barqarorligi va ushbu aloqalarning aksariyat ishtirokchilar uchun katta ahamiyat kasb etishi; ishtirokchilar o'zaro hamkorligining uzoq muddatli muvofiqlashtirilganligi; axborotlarni keng yoyish maqsadida klasterlar o'rtasida guruhlarining shaxsiy harakatchanligi; o'zaro bog'liq boshqa klaster tarmoqlarining maqsadga muvofiq hamkorligi ta'minlanganligi; klasterda ishtirokchilarning o'zaro (vertikal va gorizantal) aloqalarining maqsadga muvofiqligi va faolligi; ishtirokchilar faoliyatining xususiyati bo'yicha faoliyatlar tashkillashtirilganligi; kommunikativ muhitning mavjudligi.

Klasterning doimiy «harakati» ni ta'minlash uning samaradorligini oshirib boradi. Bunda klasterni uzlyuksiz shakllantirish (klaster tarkibining uzlyuksiz yangilanib borishi: yangi ishtirokchilarning klaster tarkibiga kirishi), rivojlantirish (ishtirokchilarning o'zaro faoliyatini muvofiqlashtirib boruvchi yangicha yondashuvlarni yuzaga kelishi, klasterni boshqaruvchi mexanizmlarni rivojlanishi) jarayonlari ishtirokchilarning umumiy maqsadlar uchun amalga oshiriladigan faoliyatlariga asoslangan muhit, doimiy o'zgarib turuvchi muhit va talablarga moslashuvchanlik asosida amalga oshiriladi[1].

«Case-study» metodini informatika va axborot texnologiyalari umumta'lim fanlarini o'qitishda qo'llash orqali:

1. Informatika va axborot texnologiyalari umumta'lim fani bo'yicha o'quv axborotlarini o'zlashtirish, muammoli vaziyat (qo'yilgan savol) yuzasidan bir qancha javob mavjud bo'lgan holda ularning yechimini izlashga o'rgatadi;

2. Ta'lim jarayonid, tayyor axborotlardan foydalaniladi. Ammo, axborotlarni o'zlashtirishning usullari (yangi usullarni o'ylab topish), ularning manbalariga, o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil qo'llay olish (o'rganilgan qoidalarni boshqa misollarda ham qo'llab ko'rish) ga e'tibor qaratilmaydi.[1].

Informatika va axborot texnologiyalari darslarida «Sase-study» metodini qo'llash orqali tayyor axborotlarni o'zlashtirish emas, balki axborotlarni o'zlashtirishning usullari (yangi usullarni o'ylab topish), ularning manbalariga, o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil qo'llay olish (o'rganilgan qoidalarni boshqa misollarda ham qo'llab ko'rish) ga o'rgatiladi.

3. «Sase-study» metodinini qo'llashining natijasi sifatida nafaqat o'quv faoliyati, balki o'zlashtirilgan o'quv axborotlarini amaliyotga tatbiq etish orqali hayotiy faoliyat davomida qo'llay olishi lozim bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish, malakalarini egallash ko'zda tutiladi.

4. Metodni qo'llash jarayonida fan yuzasidan o'quv-bilish motivatsiyani shakllantirish orqali o'quvchilarni ta'lim jarayonida faol ishtirokchiga aylantiradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha tashkil etiladigan darslarda yuqorida qayd etilgan metodlardan foydalanish o'quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali shakllantirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Amrullaevich K. A., Mamatkulovich B. B. TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTSIYASINI SHAKILLANTIRISHDA DIDAKTIK VOSITALARINING METODIK XUSUSIYATLARIDAN FOYDALANISH //International Journal of Sontemporary Ssientifis and Technisal Research. – 2022. – S. 645-650.

2. Amrullaevich K. A., Obid o'g'li S. J. ELEKTRON TALIM MUHITIDA TALABALARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH //International Journal of Sontemporary Ssientifis and Technisal Research. – 2022. – S. 641-645.

3. Karshiev A. A., Sobirovich E. G. INFORMATION FOR STUDENTS SOMPETENSE DEVELOPMENT METHODOLOGISAL FEATURES //Thematisss Journal of Edusation. – 2022. – T. 7. – №. 3.

4. Karshiev A. A., Mamatkulova U. E., Shobutaev Q. S. IMPLEMENTATION OF A QUALIMETRIS APPROACH IN MANAGING THE QUALITY OF EDUSATION OF STUDENTS OF A MODERN UNIVERSITY //European Journal of Research and Reflektion in Edusational Ssienses Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.

5. Qarshiev A. MAKTAB YUQORI SINF O'QUVCHISINIG AXBOROT KOMPETENTLIGI TUZILMASI //Jurnal matematiki i informatiki. – 2020. – T. 1. – №. 1.

6. Karshiev A. A. O'QUVCHILARDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING DARAJAVIY TUZILMASI //INNOVATSII V PEDAGOGIKE I PSIXOLOGII. – 2021. – T. 4. – №. 4.

7. Qarshiev AA P. Sh. M. Globallashuv jarayonida ta'lim sifatini ta'minlash va uning o'ziga xos xususiyatlari //Internauka»: nauchnyy jurnal. – №. 44. – S. 126.

8. Yusupovich H. J., Ergashev S. B. O'. MAKTAB O'QUVCHILAPIDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI PIVOJLANTIPISHI MODELI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SSIENTIFIS AND EDUSATIONAL RESEARCH. – 2022. – T. 2. – №. 13. – S. 189-194.

9. Obid o'g A. S. J., Kamalidin o'g A. A. M., Kamoliddin o'g A. N. N. Numpy Library Sapabilities. Vestorized Salsulation In Numpy Va Type Of Information //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – T. 15. – S. 132-137.

10. Qarshiev A. MAKTAB YuQORI SINF O'QUVChISINIG AXBOROT KOMPETENTLIGI TUZILMASI //Jurnal matematiki i informatiki. – 2020. – T. 1. – №. 1.

KASB-HUNAR TA'LIMI MUASSASALARI O'QUVCHILARIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Mamanova Sayyora Faxriddinovna

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali stajyor-tadqiqotchisi

sayyoramamanova94@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik aspektlari, filologik darslarda nutq kompetensiyasini takomillashtirish ahamiyati tushuntirilgan. Maqolada kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarining nutqiy imkoniyatlarini oshirishning ahamiyati hamda nutq kompetensiyasini takomillashtirishning samarali usullari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, nutqiy kompetensiya, interfaol ta'lim texnologiyalari, tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish, gapirish.

Mamlakatimizda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarga innovatsion, ilg'or usullar va metodlarni qo'llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'lim berish hamda o'quvchilarning ta'limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947- sonli, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi «Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb- hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi 187- sonli qarori, 2019- yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonlarida belgilangan qator vazifalar o'quvchilarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin hozirlaydi. Shu bois ilm berishda sharq allomalari mustaqil fikrlash, fikrni bayon qilish, nutq tuzish jarayonidagi muhim jihatlarni qamrab oluvchi ilmiy qarashlarini qayd qilganlar va shu bilan bir qatorda, nutqning ilmiy- nazariy tomoni lug'atlarda, darslik va o'quv va metodik qo'llanmalarda izoh berilib, atroflicha yoritilgan. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar tufayli yangi pedagogik texnologiyalarga talab ham oshib bormoqda.

Buyuk bobomiz Farobiyning fikricha, qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganda, bu haqdagi ilmlarning eng birinchisi jismlarga, ya'ni